



## O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIIYASINING BARQAROR RIVOJLANISH TIZIMIDAGI O'RNI VA ISTIQBOLLARI

*PhD, dots. Baratov Sa'dulla*

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

*ORCID: 0009-0008-7162-5266*

[\*s-baratov@mail.ru\*](mailto:s-baratov@mail.ru)

*PhD, dots. Jurayev Behzod*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali*

*ORCID: 0009-0005-3354-7808*

[\*jurayevbehzod1150@gmail.com\*](mailto:jurayevbehzod1150@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonda islom moliyasini barqaror rivojlantirish tizimidagi o'rni va istiqbollari tahlil qilingan. Jahon islom moliyasi bozorining o'sish tendensiyalari, O'zbekistonning islom moliyasini joriy etish sohasidagi qonunchilik islohotlari, shuningdek, islom moliyaviy vositalari mudoraba, musharaka, murabaha va sukukning milliy iqtisodiyotga tadbiq etilishi masalalari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida islom moliyasini milliy moliya tizimiga integratsiya qilish bo'yicha ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** islom moliyasi, barqaror rivojlanish, shariat, mudoraba, musharaka, sukuk, takoful, moliyaviy inklyuzivlik, islom banki, ESG.

## МЕСТО И ПЕРСПЕКТИВЫ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ В СИСТЕМЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

*PhD, доц. Баратов Саидулла*

*Самаркандский институт экономики и сервиса*

*PhD, доц. Жураев Бехзод*

*Самаркандский филиал Ташкентского государственного экономического университета*

**Аннотация.** В статье анализируется роль и перспективы исламских финансов в системе устойчивого развития Узбекистана. Исследованы тенденции роста мирового рынка исламских финансов, законодательные реформы Узбекистана в сфере внедрения исламского банкинга, а также вопросы применения исламских финансовых инструментов мудараба, мушарака, мурабаха и сукук в национальной экономике. По результатам исследования разработаны научные выводы и практические рекомендации по интеграции исламских финансов в национальную финансовую систему.

**Ключевые слова:** исламские финансы, устойчивое развитие, шариат, мудараба, мушарака, сукук, такафул, финансовая инклюзивность, исламский банк, ESG.

## THE ROLE AND PROSPECTS OF ISLAMIC FINANCE IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT SYSTEM

*PhD, assoc. prof. Baratov Sa'dulla*

*Samarkand Institute of Economics and Service*

*PhD, assoc. prof. Jurayev Behzod*

*Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *The article analyzes the role and prospects of Islamic finance in Uzbekistan's sustainable development system. The study examines global Islamic finance market growth trends, Uzbekistan's legislative reforms in implementing Islamic banking, as well as the application of Islamic financial instruments — mudaraba, musharaka, murabaha and sukuk — in the national economy. Based on the research results, scientific conclusions and practical recommendations for integrating Islamic finance into the national financial system have been developed.*

**Keywords:** *Islamic finance, sustainable development, sharia, mudaraba, musharaka, sukuk, takaful, financial inclusion, Islamic bank, ESG.*

### **Kirish.**

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar sharoitida moliya tizimini rivojlantirish va uning barcha aholi qatlamlari uchun qulayligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Aholisining 90 foizdan ortig'i islom diniga e'tiqod qiladigan mamlakatimizda an'anaviy moliya tizimi bilan bir qatorda shariat talablariga muvofiq moliyaviy xizmatlar ko'rsatish zaruratini e'tirof etish jiddiy amaliy ahamiyat kasb etadi.

BMTTDning (2022) so'rovnomasiga ko'ra, O'zbekiston aholisining 68 foizi diniy e'tiqodi sababli an'anaviy bank xizmatidan foydalanishni istamaydi; tadbirkorlarning esa 60 foizi foizli moliyalashtirishni o'z e'tiqodlariga zid deb hisoblaydi. Ushbu holat mamlakatimizda moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirishning muhim to'siqlaridan biri bo'lib, uning yechimi islom moliyaviy xizmatlarini rivojlantirishda mujassamlashadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev (2024) 2024-yil avgust oyida tadbirkorlar bilan ochiq muloqotda islom moliyasi bo'yicha qonun loyihasi tayyorlanganini va uning qabul qilinishi biznesga yiliga 5 mlrd AQSh dollarlik qo'shimcha moliyaviy resurs yaratish imkonini berishi mumkinligini ta'kidladi. Bundan tashqari, mutaxassislarning baholashiga ko'ra, islom bankingini joriy etish orqali mamlakatga 10 mlrd AQSh dollargacha xorijiy sarmoya jalb etilishi mumkin (Spot.uz, 2025a).

Ushbu omillar majmui islom moliyasini O'zbekiston barqaror rivojlanish tizimida tadqiq etish dolzarbligini belgilaydi va mavzuning nazariy hamda amaliy ahamiyatini asoslaydi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Islom moliyasining nazariy asoslari va uning barqaror rivojlanish tizimidagi o'rnini o'rganishga oid ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlar mavjud.

Islom moliyasi bo'yicha taniqli tadqiqotchi M.Chapra (1992) islom iqtisodiy modelini me'yoriy asosda tahlil qilib, shariat tamoyillariga rioya etish nafaqat musulmon jamiyatlar, balki barcha insoniyat uchun jamiyat farovonligiga xizmat qiluvchi adolatliroq iqtisodiy tizimni yaratishga imkon berishini isbotladi. Uning xulosasiga ko'ra, foizni taqiqlash va foyda-zararni taqsimlash tamoyillari moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning samarali vositasi hisoblanadi.

M.Obaydulla (2005) o'zining tadqiqotida islom moliyaviy tizimining ESG (ekologiya, ijtimoiy siyosat, korporativ boshqaruv) konsepsiyasi bilan mutanosibligini ko'rsatadi. Olimning fikricha, shariat tamoyillari asosida qurilgan moliyaviy vositalar — mudoraba, musharaka va

sukuk — barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan investitsiyalarni jalb etishda an'anaviy moliya vositalariga samarali alternativa bo'la oladi.

O'zbekiston sharoitida islom moliyasini tadqiq etgan mahalliy olimlar orasida X.Nusratxo'jaev (2023) alohida o'rin tutadi. Mazkur tadqiqotchi islom moliyasi institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) kengashi a'zosi sifatida O'zbekistonda islom bankingini joriy etishning qonunchilik va amaliy jihatlarini tahlil qilib, mamlakatda islom moliyaviy infratuzilmasini yaratishga to'sqinlik qilayotgan asosiy to'siqlar: soliq neytralligining yo'qligi, litsenziyalash tizimining shakllanmaganligi va kadrlar tayyorlash tizimining yetarlicha rivojlanmaganligini aniqlagan.

M.Pulatova va A.Qulmamatov (2022) o'zlarining birgalikdagi tadqiqotida O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish masalalarini o'rganib, moliyaviy inklyuzivlik va islom moliyaviy xizmatlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan. Ularning xulosasiga ko'ra, islom moliyasi xizmatlarini rivojlantirish aholini moliya tizimiga kengroq jalb etishda muhim rol o'ynay oladi.

Tahlil qilingan tadqiqotlardan ko'rishimiz mumkinki, islom moliyasi barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan chuqur uyg'unlikda bo'lib, O'zbekiston sharoitida uning rivojlantirilishi aholini moliyalashtirish, investitsiyalarni jalb etish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim vositaga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur sohada mamlakatimiz imkoniyatlarini tizimli baholashga oid tadqiqotlar yetarli emasligi mavzuning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda islom moliyasini barqaror rivojlantirish tizimidagi o'rni va istiqbollarni tahlil etish asosida ilmiy-nazariy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot davomida quyidagi manba va usullaridan foydalanildi: O'zbekiston Respublikasining islom moliyasi sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari, Markaziy bank va Moliya vazirligi statistik ma'lumotlari, Islom taraqqiyot banki va IFSB xalqaro tashkilotlarining hisobotlari, mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Islom moliyasini barqaror rivojlantirish tizimida tahlil qilishni jahon islom moliyasi bozorining holatini baholashdan boshlashimiz maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1-jadval.

#### Jahon islom moliyasi bozorining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Jahon islom moliyasi aktivlari (trln AQSh dol.)	2,70	3,06	3,25	3,38	3,88
Yillik o'sish sur'ati (%)	11,6	13,3	6,2	4,0	14,9
Islom banki aktivlari o'sishi (%)	14,0	14,5	9,0	8,3	17,05
Sukuk chiqarilishi o'sishi (%)	—	—	—	—	25,6
Takoful aktivlari o'sishi (%)	—	—	—	—	16,9
Islom moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan mamlakatlar soni	75	75	75+	75+	75+

**Manba:** IFSB Islamic Financial Services Industry Stability Report 2025 (2024-yil yakunlari bo'yicha). — Kuala Lumpur: IFSB, May 2025. Manba: [www.ifsb.org](http://www.ifsb.org).

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, jahon islom moliyasi aktivlari 2020-yilda 2,70 trln AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 3,88 trln AQSh dollariga oshgan — ya'ni besh yil ichida 1,44 baravar ko'paygan. Islom moliyaviy xizmatlar kengashi (IFSB)ning 2025-yil may oyida e'lon qilingan Barqarorlik Hisobotiga ko'ra, 2024-yilda islom banki aktivlari 17,05 foizga, sukuk chiqarilishi 25,6 foizga, takoful aktivlari esa 16,9 foizga o'sgan. Mazkur o'sish sur'atlari islom moliyaviy tizimi global iqtisodiyotdagi mavqei tezlik bilan kengayib borayotganini yaqqol ko'rsatadi. Standard Chartered bankining prognoziga ko'ra, islom moliyasi 2024-2028 yillar oralig'ida yana 36 foizga o'sishi, sukuk bozori esa 54,5 foiz kengayishi kutilmoqda.

Islom moliyasi aktivlarining umumiy global hajmdagi ulushi hali atigi 1,5 foizni tashkil etishiga qaramay, 75 dan ortiq mamlakatda 520 dan ziyod islom moliyaviy institutining faoliyat yuritishi va Afrika hamda Markaziy Osiyo mintaqalarida eng yuqori o'sish sur'atlarining kuzatilayotgani ushbu tizimning yangi bozorlar uchun katta imkoniyatlar ochib berishini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda islom moliyasi rivojlanishini baholash uchun mamlakat bank sektorining holatini tahlil qilish zarur.

2-jadval.

### O'zbekiston bank sektorining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Banklar umumiy aktivlari (trln so'm)	266,8	362,5	489,1	652,1	769,3
Aktivlar yillik o'sishi (%)	29,2	35,9	34,9	33,3	18,0
Tijorat banklari soni	31	33	35	36	36
Aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi (%)	30	33	38	43	47*
Diniy e'tiqod sabab an'anaviy bankdan voz kechganlar ulushi (%)	—	—	68	68	68

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistikasi: [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston bank sektori 2020-2024 yillarda jadal rivojlanmoqda: umumiy aktivlar 2020-yildagi 266,8 trln so'mdan 2024-yilda 769,3 trln so'mga oshgan — ya'ni besh yilda 2,9 baravar ko'paygan. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda tijorat banklari aktivlari 18 foizga o'sib 769,3 trln so'mni tashkil etdi (2023-yilda 652,1 trln so'm edi). Tijorat banklari soni ham 2020-yildagi 31 tadan 2024-yilda 36 taga ko'paydi. Biroq aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi hali ham nisbatan past — 2024-yilda taxminan 47 foizni tashkil etadi. Ayniqsa, BMTTDning so'rovnomasi ko'rsatayotganidek, aholining 68 foizi diniy e'tiqodi sababli an'anaviy bank xizmatidan voz kechgani moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirishda islom moliyaviy xizmatlariga ob'ektiv talab mavjudligini ifodalaydi.

Ushbu vaziyatni hisobga olgan holda, islom moliyasini O'zbekiston moliya tizimiga integratsiya qilish uchun zarur bo'lgan huquqiy-me'yoriy asoslarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatda mazkur yo'nalishda izchil institutsional va normativ islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining islom moliyasini rivojlantirish borasidagi dastlabki muhim qadami 2003-yilda mamlakatning Islom taraqqiyot bankiga (ITB) a'zo bo'lishi bilan bog'liqdir. 1975-yilda tashkil etilgan ushbu xalqaro moliya instituti bugungi kunda 57 ta musulmon davlatni birlashtirgan holda, islom moliyaviy instrumentlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynab kelmoqda.

Keyingi bosqichda, 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ITB rahbariyati bilan o'tkazgan uchrashuvi natijasida 2018–2021-yillarga mo'ljallangan 1,3 milliard AQSh dollari miqdoridagi hamkorlik strategiyasi imzolandi. Mazkur kelishuv doirasida Moliya vazirligi huzurida islom bankchiligi va moliyaviy tamoyillarni joriy etish bo'yicha maxsus tashabbus guruhi tashkil etildi (Cyberleninka.ru, n.d).

Islom moliyasini rivojlantirish yo'lidagi muhim huquqiy qadam sifatida 2020-yil 12-mayda qabul qilingan PF-5992-sonli Prezident farmonini (2020) alohida ta'kidlash lozim. Ushbu farmon bilan 2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi tasdiqlanib, unda islom moliyaviy xizmatlarini rivojlantirish uchun zarur huquqiy va institutsional sharoitlarni yaratish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shuningdek, 2023-yil noyabr oyida qabul qilingan Prezident qaroriga (2023) muvofiq, mikromoliya tashkilotlari tomonidan islom moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatishning normativ-huquqiy bazasini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Mazkur tashabbus islom moliyaviy xizmatlarini keng ommaga yetkazishda muhim bosqich hisoblanadi. 2024-yil iyul oyida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024) tomonidan mikromoliya tashkilotlariga islom moliyalashtirish tamoyillari asosida xizmat ko'rsatishga ruxsat berildi. Bunda ushbu tashkilotlar uchun shariat kengashlarini tashkil etish hamda moliyaviy operatsiyalar bo'yicha alohida buxgalteriya hisobini yuritish majburiy talablardan biri sifatida belgilandi. Nihoyat, 2024-yil 16-sentabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida islom banklari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda ma'qullandi. Mazkur qonun loyihasida soliq va fuqarolik kodekslariga, shuningdek, yana sakkizta normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilgan. Umuman olganda, yuqorida qayd etilgan islohotlar O'zbekistonda islom moliyasini institutsional jihatdan shakllantirish va uni milliy moliya tizimiga integratsiya qilish yo'lida muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, loyiha bilan qonunchilikka "islom banki", "moliya operatsiyalari va standartlari" hamda "investitsion depozit" tushunchalarini kiritish taklif etilmoqda. Islom banki faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani joriy qilish va uni olish bo'yicha aniq talablar belgilanmoqda. Islom banklari va islom "darchalari" uchun AAOFI va IFSB standartlariga mos keluvchi huquqiy asos yaratiladi.

Fikrimizcha, Islom moliyaviy tizimining asosiy vositalari — mudoraba, musharaka, murabaha va sukuk — O'zbekiston sharoitida quyidagi yo'nalishlarda samarali qo'llanilishi mumkin. Jumladan:

Mudoraba va musharaka — xususiy tadbirkorlik loyihalarini, innovatsion startaplarni va kichik biznesni foyda-zararni taqsimlash asosida moliyalashtirish uchun. Ushbu vositalar oilaviy biznesni rivojlantirishda va qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda ayniqsa samaralidir.

Murabaha — aholiga uy-joy va unumdorlik vositalarini xarid qilish uchun muddatli moliyalashtirishda. Bu vositadan allaqachon bir qator banklar va mikromoliya tashkilotlari noformal shaklda foydalanmoqda.

Sukuk — davlat va xususiy infratuzilma loyihalarini shariatga mos kredit vositalari orqali moliyalashtirishda. Yaqin Sharq va Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarining davlat sukuki chiqarish tajribasi O'zbekiston uchun muhim namuna bo'la oladi.

Takoful (islom sug'urtasi) — aholini o'zaro sug'urta asosida muhofaza qilishda. O'zbekistonda majburiy ijtimoiy sug'urta va ixtiyoriy hayot sug'urtasi segmentida takoful modelini tatbiq etish katta istiqbolga ega.

Islom moliyaviy modeli o'zining asosiy tamoyillaridan kelib chiqib barqaror rivojlanish moliyasi, ya'ni ESG konsepsiyasiga juda yaqin turadi. Bizningcha, islom moliyasining barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg'unligi quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi: Ekologik jihat (E): Islom banklari tabiat holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishdan bosh tortadi. Sukuk emissiyasining o'sib borayotgan qismi davlat va xususiy ekologik dasturlarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

Ijtimoiy jihat (S): Zakot va sadaqa institutlari orqali daromadlarning adolatli taqsimlanishi, nafaqa va yordamga muhtojlarga manzilli yordam ko'rsatish ijtimoiy mas'uliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu tamoyillar O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish dasturlari bilan chuqur uyg'unlashishi mumkin.

Korporativ boshqaruv (G): Shariat kengashlari orqali amalga oshiriladigan ikki pog'onali audit tizimi, moliyaviy operatsiyalarning to'liq shaffofligi va manipulyatsiyalar va spekulyatsiyalarning taqiqlanishi ko'rsatkichlari korporativ boshqaruvning yuqori standartlarini ta'minlaydi.

Ushbu uch jihatning islom moliyasida organik birligi mamlakatimizda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda islom moliyaviy vositalaridan keng foydalanish uchun mustahkam konseptual asos yaratadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillarni quyidagicha guruhlash mumkin:

Huquqiy va normativ to'siqlar: an'anaviy bank qonunchiligi banklarga savdo faoliyatini amalga oshirishni taqiqlaydi, bu esa murabaha tamoyillarini qo'llashga imkon bermaydi; islom moliyaviy vositalarini ikki marta soliq solish muammosi mavjud; litsenziyalash tartibi ishlab chiqilmagan.

Institutsional to'siqlar: Islom moliyasi bo'yicha malakali kadrlarning yetishmasligi; shariat auditorlari tayyorlash tizimining rivojlanmaganligi; islom moliyaviy infratuzilmasining (takoful, sukuk bozori) shakllanmaganligi.

Ma'lumot va ishonch to'siqlari: Aholining islom moliyasi afzalliklari haqidagi bilimi cheklanganligi, moliyaviy savodxonlikning umumiy pastligi, barcha moliyaviy institutlarga nisbatan ishonchsizlik.

Shuningdek O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish uchun mavjud institutsional va iqtisodiy sharoitlar yetarlicha mustahkam asos yaratishini ta'kidlash mumkin. Jumladan:

Demografik omil. Aholining 90 foizdan ortig'ini musulmonlar tashkil etuvchi, qariyb 36 million kishilik bozor mavjudligi islom moliyaviy xizmatlariga barqaror va yuqori talab shakllanishiga xizmat qiladi.

Investitsion salohiyat. Yaqin Sharq hamda Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan islom moliyasi tamoyillari asosida investitsiyalarni jalb etish imkoniyati mavjud bo'lib, mutaxassislar bahosiga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 10 mlrd AQSh dollarigacha yetishi mumkin.

Davlatning siyosiy irodasi. Islom banki faoliyatini tartibga soluvchi qonun loyihasining Oliy Majlis tomonidan birinchi o'qishda ma'qullanishi mazkur yo'nalishda davlat darajasida aniq siyosiy iroda mavjudligini ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba va metodologiya. Islom moliyasi sohasida yetakchi hisoblangan Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari va Saudiya Arabistoni kabi davlatlarning ilg'or tajribasi hamda amaliy mexanizmlari O'zbekiston uchun samarali institutsional model sifatida xizmat qilishi mumkin.

Mazkur omillar yig'indisi O'zbekistonda islom moliyasini izchil rivojlantirish, uning institutsional asoslarini mustahkamlash hamda xalqaro moliyaviy integratsiyani chuqurlashtirish uchun muhim zamin yaratadi.

### **Xulosalar va takliflar.**

Yuqorida bayon etilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalar va takliflarni shakllantirish mumkin deb hisoblaymiz:

1. O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish uchun yagona, to'laqonli va yaxlit qonunni yaratish zarur. Islom bankiga oid qonun loyihasini imkon qadar tezroq yakunlab, tasdiqlash va "islom banki", "investitsion deposit", "shariat auditori" tushunchalarini qonunchilikda rasmiylashtirish lozim.

2. Soliq neytralligini ta'minlash maqsadida islom moliyaviy vositalarini (mudoraba, musharaka, murabaha, sukuk) ikki marta soliq solishni bartaraf etish uchun Soliq kodeksiga tegishli tuzatishlar kiritish kerak.

3. Malayziya, Qozog'iston va Qirg'iziston tajribasini o'rganib, O'zbekiston sharoitiga moslangan ikki komponentli moliya tizimini (an'anaviy va islom moliyaviy institutlari parallel faoliyat yuritadigan) barpo etishga o'tish strategiyasini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

4. Islom moliyasi bo'yicha milliy kadrlar tayyorlash tizimini yaratish zarur. Oliy o'quv yurtlarida ixtisoslashgan ta'lim dasturlarini joriy etish, AAOIFI va IFSB standartlari bo'yicha sertifikatlash tizimini yo'lga qo'yish, shariat auditorlari tayyorlash kurslarini tashkil etish.

5. Islom moliyasini barqaror rivojlanish (ESG) konsepsiyasi bilan integratsiya qilish: davlat sukuklari orqali "yashil" loyihalarni moliyalashtirish, islom moliyaviy institutlarida ekologik va ijtimoiy investitsiya skriningini majburiy qilish tavsiya etiladi.

Bizning fikrimizcha, mazkur taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilishi natijasida, O'zbekiston yaqin istiqbolda Markaziy Osiyoda islom moliyasi markazi sifatida yetakchi mavqega ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotiga har yili o'rtacha 5–10 milliard AQSh dollari miqdorida islom moliyaviy investitsiyalarini jalb etish imkoniyati yuzaga keladi. Mazkur jarayon, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotning barqaror va izchil rivojlanishini ta'minlashga, moliyaviy inklyuzivlik darajasini kengaytirishga hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Adabiyotlar/ Jumepamypa/References:**

BMTTD (2022) *So'rovnoma ma'lumotlari. O'zbekistonda moliyaviy inklyuzivlik tadqiqoti*. 47 b. Available at: <https://oyina.uz/uz/posts/29754>.

Chapra, M.U. (1992) *Islam and the economic challenge*. Leicester: The Islamic Foundation.

IFSB (2025) *Islamic Financial Services Industry Stability Report 2025 (2024-yil yakunlari bo'yicha)*. Kuala Lumpur: IFSB, May.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (2025) *O'zbekiston banklarining 2024 yil reytingi va bank sektori aktivlari tahlili. 2025-yil fevral*. Manba: [daryo.uz](http://daryo.uz); O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistikasi: [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz).

Markaziy bank xabarnomasi (2024) *Mikromoliya tashkilotlariga islom shartlari asosida xizmat ko'rsatishga ruxsat berildi. 2024-yil iyul*. Manba: [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz).

Mirziyoev, Sh. (2024) *Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot. 2024-yil avgust*. Manba: [president.uz](http://president.uz).

Nusratxo'jaev, X. (2023) *'Islom moliyasi tamoyillari va O'zbekistonda uni joriy etish masalalari'*, in AAOIFI xalqaro konferensiya materiallari. Manoma.

Obaidullah, M. (2005) *Islamic financial services*. Jeddah: Islamic Economics Research Centre.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020) *PF-5992-son Farmoni. 2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida*. 12.05.2020. Manba: [lex.uz](http://lex.uz).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2023) *Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islom moliyalashtirishga oid xizmatlar ko'rsatishning normativ-huquqiy bazasini ishlab chiqish to'g'risida*. 2023-yil noyabr.

Pulatova, M. and Qulmamatov, A. (2022) *'O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish masalalari'*, *Iqtisodiyot va moliya jurnali*, (5), pp. 44–52.

Spot.uz (2025a) *Deputatlar islom bankini joriy etish to'g'risidagi qonun loyihasini birinchi o'qishda ma'qulladi*. 2025-yil 16-sentabr. Manba: [www.spot.uz/oz/2025/09/16/islamic-bank](http://www.spot.uz/oz/2025/09/16/islamic-bank).

Spot.uz (2025b) *O'zbekiston islom bankini joriy etishga tayyorlanmoqda*. 2025-yil 13-oktabr. Manba: [www.spot.uz/oz/2025/10/13/islamic-finance](http://www.spot.uz/oz/2025/10/13/islamic-finance).

*Islom taraqqiyot banki va O'zbekiston: iqtisodiy diplomatiya taraqqiyoti yo'lida* (n.d.) [Cyberleninka.ru](http://Cyberleninka.ru). Manba: [cyberleninka.ru/article/n/islom-taraqqiyot-banki](http://cyberleninka.ru/article/n/islom-taraqqiyot-banki).